

## "QASOSKORNING OLTIN BOSHI" ROMANIDAGI G'OYA VA NAMOZ BOTIR OBRAZI TAHLILI

**Tovboyeva Gavhar**

*O'zbekiston –Finlandiya Pedagogika fakulteti*

*207- guruh talabasi*

*Ilmiy rahbar: Raximova .G*

*O'z-Fin Pedagogika instituti dotsenti*

**Annotasiya:** *Ushbu maqola mustamlaka davrida xalqqa umid bag'ishlagan, xalq dardini his etib yashagan Namoz botir haqida bo'lib, Xudoyberdi To'xtaboyev qalamiga mansub "Qasoskorlarning oltin boshi" romanidagi g'oya va qahramonlar hayoti tahlil qilingan. Maqolada Namoz Pirimqul o'g'li hayotiy obraz bo'lganligi sababli u haqida asardan tashqari ma'lumotlar ham keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *qahramon, taraqqiyparvar, qo'zg'alonchi, qasoskor, mustabid, mustamlaka, protatip, proza.*

Hayot davomiy bo'lishiga qaramasdan, u har daqiqada yangilanib, o'zgarib ya'ni ba'zan tug'ilish, ba'zan o'lish bilan uzluksiz davom etadi. Hech narsa abadiy emas na oyoq qo'yib turgan yerimiz, na biz mehr qo'ygan dunyo. Bari o'tkinchi. Bugun bor, ertaga yo'q. Balki ertaga ham bor bo'lar, lekin qachon bir kuni ularning hammasini yo'qlikka singib ketadi. Shunday vaqtlar keladiki hamma narsa yo'qoladi va yangidan zarrama-zarra qaytadan paydo bo'ladi. Olamda o'lgandan so'ng qayta tug'iladigan inson yo'q, biroq yo'qolsada qaytadan paydo bo'ladigan orzular, umidlar, istaklar bor. Bunday tuyg'ular paydo bo'lgan vaqtda doimo ko'ngillarni jamlaydi, junbushga keltiradi. Demak abadiylik ham aynan ularga hosdir. Mana shunday abadiy va ezgu g'oyalarni olg'a suruvchi kishilarni hech shubhasiz qahramon deyishimiz mumkin. Qahramon- xavf-xatarga qarshi kurashadi, zukkolik, jasorat yoki kuch ko'rsatadi. Ular boylik, g'urur va shon-shuhrat degan klassik maqsad o'rniga umumxalq manfaati uchun buyuk ishlar yoki fidokorona ishlar qiladilar.

Har bir xalq o'zi yaratgan ajoyib shaharlar va san'at obidalari bilan qanday faxrlansa, tarixda yorqin iz qoldirgan botir farzandlari bilan ham shunday iftixor qiladi. Chunki bunday insonlar kamdan-kam tug'iladi. Ular qilgan ishlar ba'zan afsonaga aylansa, ba'zan tengsiz bir kitob bo'lib kitobxon qo'lga tushadi. Qahramonlar haqida yozilgan asarlarning aksari turli to'qima va bo'rttirishlar bilan boyitilgan. Ammo tarixda shu fidoyi o'g'lonlar borki ular qilgan ishlar shunchaki, yozilsa ham har qanday bo'rttirishlar qo'shilgan kitobdan ming karra qiziqarli bo'lishi aniq. Zarafshon vodiysida tug'ilib o'sgan ikki tomonlama zulmdan behad ezilgan mehnatkashlarni afsonaviy bir dovyuraklik bilan himoya qilgan Namoz botir ham tariximizda o'chmas iz qoldirgan nodir shaxslardan bo'lgan. Namoz xalq ozodlik harakatiga boshchilik qilib,

hokim sinf vakillarni zir titratib el og'ziga tushadi . U oddiy xalqqa umid beradi. Yuqori sinf vakillari Namozni qaroqchi deb atashsa, oddiy xalq uchun u avliyo bo'lgan. O'sha davr voqealarini boshdan kechirgan mashhur rus yozuvchisi Anna Almatinskaya o'zining « Zulm » deb atalgan trilogiyasida Namozni boylar va chor amaldorlarining dodini beradigan , ulardan tortib olgan pullari va boyliklarini och - yalang'och kambag'allarga ulashadigan xalq qasoskori deb baholaydi . Trilogiyada Namozga bag'ishlangan bir yarim betlik kichik lavha bor . Yozuvchi mustabid tuzum fuqarosi bo'lishiga qaramay Namoz haqida iliq fikrlar bildirishi qasoskorlarning to'g'ri yo'lda bo'lganligining isbotidir. Taraqqiyparvar vrach Ronin Namozni chor politsiyachilari bilan otishmada yarador bo'lgan paytida Namozni uchratadi , unga tibbiy yordam ko'rsatadi . Yaxshilikni unutmaydigan Namoz oradan bir qancha vaqt o'tgach o'zining qirg'iz yigitidan Roninga atab katta qo'y sovg'a qilib yuboradi . Bu voqealar 1906 - yildagi rus inqilobi to'lqinlari Turkiston kabi chet o'lkalarda ham mehnatkashlar xalqni sinfiy adolatsizliklarga qarshi qo'zg'atgan paytda yuz beradi . Namozning qo'zg'olonchi yigitlari safida o'zbeklar Nazarmatvey deb chaqiradigan Nazar Matveyevich ismli ajoyib rus o'g'lioni bo'lgan. Ular bilan birga ukrain , turkman , qirg'iz , armani , moldavan va boshqa millat vakillari ham Namoz boshchiligida hokim sinfnig adolatsizliklariga qarshi qurolli janglar qilgani aniq hujjatlar bilan tasdiqlangan . O'z atrofiga shuncha insonni jamlagani ham Namoz botirning haq yo'lidagi ekanligini ko'rsatadi. Namoz harakati goho Pugachev bilan hamkor bo'lgan Salavat Yulayevni yodga soladi . Uning qasoskorligi Pushkinning "Dubrovskiy"sini ham eslatadi . Ayni vaqtda , Namoz boshchilik qilgan ozodlik harakati baynalmilal inqilobiy harakatlarga ham juda yaqinlashib keladi . Buni yigirmanchi yillardayoq payqagan o'lmas adibimiz Abdulla Qodiriy Namoz haqida roman yozmoqchi bo'lgan , shu maqsadda Samarqandga va Namoz tug'ilib o'sgan qishloqqa borib , uning o'shanda tirik bo'lgan opasi Ulug'oy bilan uchrashgan , undan ko'p narsalarni so'rab olgan va hattoki u bilan suratga ham tushadi . Adibning o'g'li Habibulla Qodiriyning eslashicha , adib Namozni savodli , bilimli va dovyurak bir qasoskor qilib ko'rsatish fikrida bo'lgan , ammo bu niyatini amalga oshirishga ulgurolmay olamdan ko'z yumgan. Keyinchalik Izzat Sulton o'zining « Noma'lum kishi » nomli she'riy drammasidagi bosh qahramon Niyoz siymosi Namozni prototip qilib oladi . Shunday katta yozuvchilarni qiziqtirgan tarixiy shaxs haqida roman yozish uchun iste'dod va mehnatdan tashqari ijodiy jur'at ham kerak edi . Xudoyberdi To'xtaboyev mana shu xayrli ishga dadil qo'l urgan, Namoz botir hayotiga oid hamma manbalarni astoydil o'rgangani , qahramonning yurtiga borib , uni ko'rgan - bilgan barcha odamlarni topib , batafsil suhbatlashgani va nihoyat , o'zidan oldingi adabiy asarlarda to'plangan yaxshi ijodiy an'anani izchil davom ettirib , bu katta mavzuni roman janri taqozo etadigan epik ko'lamda maroqli qilib mujassam eta olgani kishini juda quvontiradi. Biz Xudoyberdi To'xtaboyevni bolalarning sevimli yozuvchisi sifatida taniymiz . " Sehrli qalpoqcha " , " Sariq devni minib" kabi asarlar faqat bizning mamlakatimizda emas , chet ellarda ham shuhrat qozongani , Italiyaning jahonga

mashhur bolalar yozuvchisi Janni Rodari X.To'xtaboyevning ijodiga juda yuksak baho bergani tasodif emas . Bu yozuvchi ijodida hali o'zbek tanqidchilari yetarlicha qadrlab , ochib bermagan ajoyib fazilatlar bor . X. To'xtaboyev prozasi o'zbek bolalar adabiyotida yangi bir to'lqin yaratdi , o'z janrida bu yozuvchi yangi so'z aytdi . Mark Tvenning Tom Soyer va Geklberri Finnlarini faqat bolalar emas , kattalar ham qiziqib o'qishi - bu asarlarning katta adabiyotga mansub ekanini ko'rsatadi . X.To'xtaboyevning « Sariq devni minib » , « Sehrli qalpoqcha » asarlari katta - kichik barcha kitobxonlarda shavq - zavq va maroq uyg'otgani ham ularning butun adabiyotimiz xazinasiga qo'shilgan nodir javohirlar ekanini aytib turibdi . Namoz botir haqidagi roman ham bolalar uchun yozilgan , lekin uni barcha kitobxonlar katta qiziqish bilan o'qishlarga shubxa yo'q . "Qasoskorning oltin boshi" deb nomlanuvchi roman kitobxonlarga ajoyib ozuqa beribgina qolmay ular uchun ajoyib o'rnak bo'lishi ham aniq. Asar nomida qasoskorning ya'ni Namozning oltinga teng boshi nazarda tutilgan. Mustabid tuzum Namoz botirning boshi uchun bir dunyo oltin va'da qilgan bo'lsa, qasoskorlar va oddiy xalq uning boshi omon qolishi uchun so'nggi burda nonini ham berishga tayyor bo'lgan.Shuning uchun ham o'sha davrdagi har bir inson uchun Namozning boshi oltinga teng. Asar nomi ham shundan "Qasoskorning oltin boshi"

Namoz - mutlaqo benuqson odam emas , unda ham ichki ziddiyatlar , xato tushunchalar bor , shular ta'sirida qattiq adashgan paytlari bo'ladi . Lekin uning xalqparvarligi , adolatparvarligi doim baland keladi . Ramanda Namoz faqat jismoniy jihatdan polvon va qo'rqmas bir odamgina emas , aqliy jihatdan ham nihoyatda iste'dodli va dono bir xalq farzandi bo'lib gavdalanadi . Namoz botir allaqachon O'zbekiston tarixiga kirgan , uning sahifalarida isyonkor xalq vakili sifatida ta'riflangan edi . Namoz botir qilgan ishlar haqida, olg'a surgan g'oya haqida gap ketar ekan, beixtiyor G'ofur G'ulomning "Vaqt" she'rida keltirilgan quydagi misralarini eslab olsak yanada Namozning shaxsiyatiga yaqinlashamiz desam yangilishmayman.

Shuhrat qoldirmoqqa Gerostratdek,  
Diana ma'badin yoqmoq shart emas,  
Ko'plarning baxtiga o'zlikni jamlab,  
Shu ulug' binoga bir g'isht qo'ysak bas.  
Har lahza zamonlar umridek uzun,  
Asrlar taqdiri lahzalarda hal.  
Umrden o'tajak har lahza uchun,  
Qudratli qo'l bilan qo'yaylik haykal.

Namozning maqsadi asli shuhrat qozonish emas, u tinchlik atalmish bebaho binoga bir g'isht qo'yishga mazlumlarni chorlaydi . Asrlarning taqdiri hal bo'lajak lahzalarda umrining hech bir onini behuda sarflamasdan ezilgan xalq vakillarining qadoq qo'llarini bir musht-qudratli qo'l qilib oddiy insonlarni ezgan har kimga zarba berish edi uning istagi. Asarda Namoz suyukli rafiqasi Nasiba bilan kelajak haqida suhbat qurayotgan vaqt shunday deydi -

" G'allakor bo'lmoqchiman , haqq-huquqini birov oyoq osti qilmaydigan erkin g'allakor bo'lmoqchiman . Keng dalalarda yayrab ishlasam , hosil pishganda xirmon tepasiga birov qop ko'tarib bormasa ... orzum shu , xudo haqqi , bundan boshqasi kerakmas . Erkin zamonlar uchun jang qilayapmiz" Bu so'zlarning o'zi Namoz botirning naqadar sodda, mehnatkash va jasur inson ekanligini yorqin dalilidir.

Amir Temur buyuk davlat tuzgan tengsiz aqil va kuch egasidir. "Kuch-adolatda" so'zlari Amir Temur uzugiga o'yib yozilgan edi va davlat muhrida ham aks etdi. "Mamlakat zulmga chidashi mumkin, ammo adolatsizlikka chiday olmaydi", deb yozgandi Amir Temur o'z "Tuzuklar"ida. Ayrim manbalarda " Kuch adalatda" so'zi Amir Temur qilichiga ham o'yib yozilgan deyiladi. Shu o'rinda Amir Temurni eslashimizdan maqsad Namoz botirning ham doimo safdoshlariga uqdiruvchi huddi Temurbekniki kabi shiori bo'lgan .

"Ilgimdin kelganicha zulm tig'in ushotib, mazlum jarohatiga intiqom malhami qo'yum"

Bu so'zlarni har bir qasoskor tinimsiz takrorlab yurgan. «Ilgimdan kelganicha, — deb yozadi «Vaqfiya» asarida Navoiy, — zulm tig'in ushotib (sindirib), mazlum jarohatiga intiqom malhamini (qasos malhamini) qo'ydim. Va ilgimdin kelmaganni ul Hazrat (Husayn Boyqaro) arzig'a yetkurdim». Navoiyning tengsiz jumlasini asrlar o'tib Namoz botir boshchiligidagi qasoskorlarning hayot shoriga aylangani bejiz emas. Xususan Namoz qamalib qolgan vaqtda do'stlari unga shu jumla o'yib yozilgan xanjar sovg'a qilishadi. Amir Temurning qilichi , Namoz botirning xanjari bular oddiy tasodif yoki o'xshashlikmi yoxud ilohiy bir taqdir. Fikrlash kitobxonga havola. Kitobda Namoz botirning naqadar kuchli ekanligini bilan bir qatorda uning mard va odil ekanligi ham chiroyli tarzda ochib berilgan . Safdoshlariga mehribon va kechiruvchan Namoz ko'p hollarda pand yeydi. " Guruch kurmaksiz bo'lmaydi" - deganlaridek, qasoskorlarning orasida ham sotqinlik bo'ladi. Ular tufayli dastlab Namoz bir farzandidan judo bo'lgan bo'lsa keyinchalik ko'plab safdoshlari va rafiqasidan ham ayriladi. Namoz botirga suyuqli bo'lgan, jasur rafiqasi Nasiba haqida gap ketganda uni o'zbek ayollariga xos iroda va matonat egasi deyishimiz mumkin. U To'maris-u Nodiralardan mardlik va sabrni meros olgan desak mubolag'a bo'lmaydi.Nasiba erkaklardek ot chopadi, merganlikni o'rganadi , umuman olganda u qasoskor ayol edi . Farzandidan, singlisidan, ota-onasidan ajralgan bo'lsada uning bardoshli barchasiga yetadi va turmush o'rtog'iga chinakam qo'lqanot bo'ladi.

Qasoskorlar doimo bir tan-u bir jon bo'lishadi. Negaki ularning maqsadlari oliy va yagona. Ular uchun Namoz qanday qadrli bo'lsa, Namoz uchun ham ularning har biri shunday ahamiyatli edi. Namozga qadirdon bo'lib qolgan sofdoshlari vafoti uning cheksiz iztiroblariga sabab bo'ladi. Xalq orasida bevaqt dunyodan ko'z yumgan qasoskorlar haqida doston ham to'qilgan.

O'zi arslon , nomi edi Sherniyoz ,  
Kambag'alga g'amxo'r edi qishu yoz ,

Qo'rquv nima bilmas edi u shovvoz ,  
Sherniyozdek botir ketdi , do'stlarim .  
Oqil , dono , kamtar edi Shohamin ,  
Titrrar edi uni ko'rsa har zolim .  
Zolimlarga qiron soldi polvonim ,  
Shohamindek dono ketdi , do'stlarim .  
Qozoq o'g'li , yetimparvar Esergep ,  
Har yetimga nafim tegsin bugun , deb  
Halok bo'ldi katta jangda qilich yeb ,  
Esergepdek shovvoz ketdi , do'stlarim .

U to'g'ri yo'ldan harakat qiladi ammo o'z maqsadiga erishishi uchun uning rahmdillik va ishonuvchanlik degan tuyg'ulari ham qisman pand beradi. Qasoskorlar orasida mol - dunyoga o'ch bo'lgan Arslonqul xoinlik qilib chor hukumatining yolg'on va'dalarga uchib Namozni o'ldiradi. Bu mazlum xalq uchun tengsiz yo'qotish edi. Namoz botir qabriga shunday yozuvli qabrtosh qo'yiladi.

-Namoz Pirimqul o'g'li tavalludi - 1879 - yil ,  
vafoti 1907 - yil .

Ilgidin kelguncha zolim tig'in ushotib ,  
Mazlum jarohatig'a intiqom malhamin qo'ydi .  
Lolavoy dashti cho'ponlaridan » .

Qo'zg'alon bu bilan yakun topmaydi. Namoz botir olg'a surgan g'oya allaqachon xalqning yurak-yuragidan o'chmas o'rin egallab bo'lgan edi . Zarafshon mazlumlari Namoz Pirimqul o'g'lidek mard , jasur ham mehribon bir yigit hamisha yonlarida bo'lishini orzu qilishardi . Xalqning bu orzusi boshqa qasoskorlar shaxsida namoyon bo'la boshladi . Sal kun o'tmay "Men Namozman , men o'lgan emasman" - deya boshqa azamatlar qilich yalang'ochlab chiqa boshladilar . Yozning o'rtalariga borib Namoz nomi bilan harakat qilayotgan to'dalarning soni o'ttizdan ortib ketdi . Nazarmullo , Tursun aravaso , Abduqodirxo'ja , Qobil o'nboshi , Katta Qoravoy , usta Nazar , Namozning jiyani Omon polvonlarning qasoskor to'dalari hokim navkarlarining tinka - madorini quritib yubordilarki , bu to'lqinlar kuchayib borib , keyingi suronli voqealarga qo'shilib ketdi.

Xulosa qilib aytganda Namoz botir inson sifatida hayotdan ko'z yumdi. Ammo g'oya sifatida, timsol sifatida mazlumlardilida yashashda davom etdi. Namozning ruhi tirik va u meni , sizni, "Qasoskorning oltin boshi" ramani tufayli kelajak avlodning ham qalbi barhayot. Bir inson uchun bundan qadrliroq xotira bo'lmas kerak. Yaxshilik, yaxshi amallar unutilmaydi. Mazkur qahramon ham, kitob ham o'ziga mos o'rinda doim e'zozda bo'lishiga ishonaman...

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1. Xudoyberdi To‘xtaboev, " Qasoskorlarng oltin boshi " ." Yangi asr avlodi", 2021-yil
- 2.Oqdaryo ovozi» gazetasi veb-sahifasi
- 3." O'zbek adiblari " ( S. Mirvaliyev , R. Shokirova . Toshkent , G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti , 2016 ) kitobi
4. Rahimova G. Ona tili va adabiyot (Bolalar adabiyoti). – Samarqand: SamDU nashri. 2022. – 303 b.
- 5.Saviya uz.com.
6. Ziyo uz.com.